



Muyassar Sapamiyazova,
Jumanazar O'rozov

O'ZBEK TILIDA NOM YARATISHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS FA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Muyassar Saparniyazova, Jumanazar O'rozov

**O'ZBEK TILIDA NOM
YARATISHNING MILLIY-MADANIY
XUSUSIYATLARI**

TOSHKENT

«MALIK PRINT CO»

2021

UO'K 811.512.133:338.4
KBK 81.2O'zb
30.604

Muyassar Saparniyazova, Jumanazar O'rozov

O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari /
M.Saparniyazova, J.O'rozov. – Toshkent, 2021. – 200 b.

Ilmiy risolada neyning tilshunosligining mohiyati, nom yaratish sohasidagi xorijiy tajriba, o'zbek tilida nom yaratishning uslubiy mezonlari, nomlarning milliy-madaniy xususiyatlari, mavzuviy guruhlari kabi masalalar yoritildi.

Ilmiy risola o'zbek tili mutaxassislari, tilshunos olimlar, tashkilotlarning ma'naviyat va davlat tili bo'yicha maslahatchilari, tadbirkor va marketologlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: S.Muhamedova,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: A.Sobirov,
filologiya fanlari doktori, professor

Sh. Ergasheva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ilmiy risola A-OT-2019-10 raqamli "O'zbek tilida neyning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida yaratildi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2021- yil 4-noyabrda majlisida (3-sonli bayonoma) nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7477-7-7

Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb; davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

Sh.Mirziyoyev

KIRISH

Yurtimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotimizning ravnaqi, Vatanimizning gullab-yashnashi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ko'plab sanoat korxonalari, ishlab chiqarish, savdo obyektlarining ishga tushganligi, ayniqsa, mahalliy xom-ashyolarimiz asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilayotganligi quvonarlidir. Albatta, bunyod etilayotgan ishlab chiqarish obyektlari, korxonalar, savdo markazlari, mahsulotlarga nom berish mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Zero, ishlab chiqarish obyektlari, savdo markazlari yoki mahsulotlarning iste'molchi diqqatini o'ziga jalb etishi, xaridorgir bo'lishida ularga qo'yilgan nomlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan turli-tuman yorqin rangli o'ramlardagi mahsulotlarni savdo peshtaxtalarida